

O‘ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR

Normurzayev Umid Xolmurzayevich

I.f.d., dotsent, Yirik soliq to‘lovchilar
bo‘yicha inspeksiya soliq bosh inspektori

ORCID: 0009-0001-0130-8766

E-mail: umid.normurzayev@soliq.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohasida ko‘p yillardan buyon soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan rivojlanish tahlili, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni takomillashtirish jarayonida hududlararo soliq inspeksiyasining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan muhim islohotlar o‘rganilib, xorij tajribasi hamda mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация

В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract

The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

Keywords: tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

KIRISH

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish salohiyatini kuchaytirish, davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini mustahkamlash, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish hamda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish masalalari bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor jihatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilovchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda hali o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy masalalar ham mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

G'arb iqtisodchilari S. Fisher, R. Dornbush va R. Shmalenzi [1] fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ularning ta'kidlashicha, soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat orqali yondashish lozim. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayoni hisoblanadi.

A. V. Aronov va V. A. Kashin [2] esa maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida ko'radilar. Ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini ko'tarish hamda soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qaralishi mumkin.

I. A. Mayburov [3] soliq islohotini soliq tizimini tubdan o'zgartirish va uni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish jarayoni sifatida izohlaydi.

N. M. Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi sifatida baholab, u mustaqil ahamiyatga egaligini hamda soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini va soliq tizimini qanday qurish zarurligini belgilaydi.

M. V. Karp [5] soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi deb hisoblaydi. U soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi va soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O. Sitnikova [6] esa konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarni tan olish yoki maxsus qayta baholash zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibini ishlab chiqish hamda konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bir xil

qiymatga ega bo'lgan subyekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratish lozimligini qayd etadi.

Y. Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib, ularga quyidagi belgilar xosligini ta'kidlaydi: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan tarkibiy bo'linmalarining integratsiyasidan foydalanish, shuningdek, mamlakat ichida ham, xorijda ham turli firmalar bilan faol hamkorlik mavjudligi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish bo'yicha mavjud holatni o'rganish, statistik va normativ ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslandi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasi hisobotlaridan olindi. Tahlil jarayonida taqqoslama, dinamik va korrelyatsion tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston–2030” Strategiyasiga muvofiq, soliq organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash hamda inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

Maqsad va ustuvor yo'nalishlar:

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 133-moddasi. Organlar, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma'lumotlar taqdim etish majburiyatlari

(o'n uchinchi qism) Bojxona organlari soliq organlariga quyidagilarni taqdim etishi shart: import operatsiyalari to'g'risidagi axborot, tovarlar, shuningdek milliy va xorijiy marketpleyslarda xorijiy davlatlarga realizatsiya qilingan tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin eksport operatsiyalari bo'yicha axborot, shuningdek tovarlarni olib o'tish, jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi axborot — bularning barchasi real vaqt rejimida taqdim etiladi.

(o'n to'rtinchi qism) Qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar va olinadigan mahsulotlar hajmi bo'yicha me'yorlarni real vaqt rejimida elektron shaklda taqdim etishi shart.

(o'n beshinchi qism) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi haqidagi axborot har oyda taqdim etiladi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF–138-son “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni¹ 1-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF–138-son “O'zbekiston Respublikasi

ilovasining 21-bandiga muvofiq, milliy va xorijiy marketpleyslarda xorijiy davlatlarga sotilgan tovarlar bo'yicha eksport operatsiyalarida qo'shilgan qiymat solig'i summasini qoplash tartibini tatbiq etish hamda Bojxona qo'mitasi tomonidan bu ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga elektron shaklda taqdim etish nazarda tutilgan.

O'zbekistonda faoliyat yurituvchi marketpleyslar orqali chet elga tovarlar sotish eksport operatsiyasi hisoblanadi. Eksport operatsiyalari bo'yicha soliq qonunchiligiga asosan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) nol foiz stavkada qo'llaniladi. Soliq to'lovchi bunday operatsiya uchun ilgari to'langan QQS summasini qoplash (qaytarib olish) huquqiga ega.

Taklifga ko'ra, marketpleys orqali amalga oshirilgan eksport operatsiyalari haqidagi ma'lumotlar Bojxona qo'mitasining ma'lumotlar bazasida shakllantiriladi va Soliq qo'mitasiga elektron tarzda yuboriladi. Soliq organlari ushbu ma'lumotlar asosida eksport qilingan tovarlar bo'yicha QQS qaytarilishini tasdiqlaydi. Natijada eksportchi korxonalaridan ortiqcha hujjatlar talab etilmaydi, chunki ma'lumotlar tizim orqali avtomatik tarzda almashiladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-sentyabrdagi PF-153-son "Qishloq xo'jaligi sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoniga ¹muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar (paxta va g'alladan tashqari) realizatsiyasi uchun "nol" stavkalik QQS joriy etiladi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha sarflar va hosil hajmi haqidagi me'yorlarni soliq organlariga taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 137-moddasi. Soliq tekshiruvlarining turlari

(*uchinchi qism*) Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazadi:

1. kameral soliq tekshiruvi;
2. sayyor soliq tekshiruvi;
3. soliq auditi;
4. transfert narx shakllanishi tekshiruvi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: Transfert narxni belgilashdagi soliq nazorati nazorat qilinadigan bitimlar tuzilishi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblanishi va to'lanishini tekshirishni o'z ichiga oladi hamda Soliq kodeksining 176–202-moddalari bilan tartibga solinadi. Kodeksning 194 va 195-moddalarida transfert narxni belgilashda soliqlarning to'liq hisoblanishi va to'lanishini nazorat qilish tartibi belgilangan.

Mazkur tekshiruv soliq nazoratining alohida turi hisoblanadi va uni kameral, sayyor yoki soliq auditi doirasida o'tkazib bo'lmaydi. Shu sababli Soliq kodeksining

Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-7696559>

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-sentyabrdagi PF-153-son "Qishloq xo'jaligi sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/docs/-7716359>

137-moddasida transfert narx bo'yicha tekshiruvni alohida tur sifatida kiritish lozim. Bu Soliq kodeksining turlicha talqin qilinishining oldini oladi.

Tahlillar natijasida 25 ta korxonada aniqlangan qo'shimcha hisoblanishi lozim bo'lgan soliq summasi 217,3 milliard so'mni tashkil etdi.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 138-moddasi. Kameral soliq tekshiruvi

(uchinchi qism) Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi boshlanishidan avval tekshiruvdan oldingi tahlilni o'tkazishi mumkin. Bunda, soliq auditi o'tkazilgan yoki o'tkazilayotgan soliq davri uchun tekshiruvdan oldingi tahlil o'tkazilmaydi.

(o'ninchi qism) Kameral soliq tekshiruvi ushbu Kodeksning 88-moddasida belgilangan da'vo muddati o'tmagan soliq davrlariga nisbatan o'tkazilishi mumkin. Bunda aynan bitta soliq (hisobot) davri uchun bir xil soliqlar bo'yicha qayta kameral soliq tekshiruvini o'tkazish mumkin emas. Biroq, kameral soliq tekshiruvi chog'ida soliq organlariga ilgari noma'lum bo'lgan yangi holatlar aniqlangan taqdirda, bu cheklov tatbiq etilmaydi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-138-son Farmonining 1-ilovasi 19-bandiga muvofiq quyidagilar nazarda tutilgan: kameral soliq tekshiruvi o'tkazilgan davrda aynan bir xil holat bo'yicha qayta kameral soliq tekshiruvi, shuningdek, soliq auditi o'tkazilgan yoki o'tkazilayotgan davrda tekshiruvdan oldingi tahlilni o'tkazmaslik; kameral soliq tekshiruvi natijasida yuborilgan talabnomaga javob xatini soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborish tartibi.

Ushbu takliflar soliq to'lovchilarning faoliyatini tekshirish tartibini aniq belgilab beradi va ortiqcha soliq ma'murchiligini kamaytiradi. Shu bilan birga, soliq organlariga soliq tekshiruvlari qamrab olinmagan davrlar va operatsiyalarni nazorat qilish uchun o'z resurslarini samarali taqsimlash imkonini yaratadi. Natijada, resurslardan oqilona foydalanish va soliq to'lovchilarni takroran tekshirish holatlarining oldi olinadi. Soliq to'lovchilar ham ortiqcha tushuntirish berish majburiyatidan ozod bo'ladi.

Ma'lumot uchun: 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida 24 ta korxonada 48 ta kameral soliq tekshiruvi ayni bir soliq davri va soliq turi bo'yicha qayta o'tkazilgan.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 139-moddasi. Sayyor soliq tekshiruvi

(yettinchi qism) Soliq to'lovchiga sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasining topshirilgan yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga elektron hujjat shaklida yuborilgan kuni sayyor soliq tekshiruvi muddatining tugashi deb hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonining¹ 1-ilovasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-7486412>

9-bandida huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha "tezkor choralar"ni ko'rish talabi belgilangan. Xususan, Soliq kodeksining 19-moddasida soliq organlari hujjatlarni elektron shaklda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuborishlari lozimligi, shuningdek, ular yuborilgan kunda olingan deb hisoblanishi belgilangan.

Soliq kodeksining 56-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar shaxsiy kabinetdan majburiy tartibda foydalanishlari shart. Shu bois soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi axborot almashinuvi faqat shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi. Elektron axborot almashinuvining yo'lga qo'yilishi ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi va xabardorlik jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli mazkur normani Soliq kodeksiga kiritish taklif etiladi.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 159-moddasi. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qilish

(birinchi qism) Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ushbu Kodeksning 158-moddasida belgilangan tartibda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha soliq organining rahbari (yoki rahbar o'rinbosari), agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1. soliq auditi materiallari bo'yicha soliqlar va penyalarni qo'shib hisoblash yoki bu haqdagi taklifni rad etish;

2. soliq to'lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish yoki bu haqdagi taklifni rad etish.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta'sir va asoslantirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorida¹ belgilangan talablardan kelib chiqib, Soliq kodeksiga "Ayrim hollarda sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish, tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish hamda natijalari bo'yicha qaror qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan yangi norma — 159¹-modda kiritilmoqda. Mazkur modda soliqqa oid huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qilishning alohida qoidalarini belgilaydi. Shu sababli Soliq kodeksining 159-moddasi birinchi qismiga ushbu mazmundagi to'ldirish kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 159¹-moddasi. Ayrim hollarda sayyor soliq tekshiruvini tashkil etish, tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish hamda natijalari bo'yicha qaror qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq organlari xodimlari tomonidan ularga birlashtirilgan korxonalarda yoki mahallalardagi soliq to'lovchilarda ushbu Kodeksning 221-moddasi birinchi qismida, 223-moddasi uchinchi qismining o'n uchinchi hamda o'n beshinchi xatboshilarida,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7408455>

429-moddasi o‘n to‘rtinchi qismida belgilangan soliqqa oid huquqbuzarliklar yoki holatlar aniqlanganda, birinchi marta rasmiy ogohlantirish beriladi va ushbu hujjat elektron tarzda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Agar rasmiy ogohlantirishdan so‘ng uch kunlik muddatda aniqlangan huquqbuzarlik bartaraf etilmasa yoki qayta sodir etilsa, ushbu soliq to‘lovchida sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Ushbu Kodeksning 223-moddasi uchinchi qismining o‘n uchinchi va o‘n beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo‘yicha sayyor soliq tekshiruvi materiallari soliq tekshiruvini o‘tkazgan soliq organi rahbari (yoki rahbar o‘rinbosari) tomonidan soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan kundan e‘tiboran bir kundan kechiktirmay, ammo uch kundan kechiktirilmagan muddatda ko‘rib chiqilishi kerak. Qaror esa soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilganidan keyin bir kundan kechiktirmay qabul qilinadi.

Ushbu Kodeksning 165-moddasining ikkinchi qismi hamda oltinchi–o‘n sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar 221-moddada qayd etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar va 429-moddada belgilangan holatlar bo‘yicha o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvi dalolatnomasiga nisbatan qo‘llanilmaydi. Mazkur huquqbuzarliklar yoki holatlar bo‘yicha tuzilgan dalolatnoma asosida qaror soliq organi rahbari (yoki rahbar o‘rinbosari) tomonidan dalolatnoma tuzilgan kundan e‘tiboran bir kundan kechiktirmay, lekin uch kundan kechiktirmay qabul qilinadi.

Sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror, o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (yoki uning vakiliga) berilgan yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron hujjat shaklida yuborilgan kundan e‘tiboran uch kun o‘tgach kuchga kiradi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan soliqqa oid huquqbuzarlik yoki holatlarni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektini rasmiy ogohlantirish shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta‘sir va asoslantirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida¹ belgilanganidek, yangi tartibdagi sayyor soliq tekshiruvlari faqat mazkur qarorning 4-ilovasida keltirilgan huquqbuzarliklar — chek bermaslik, xodimlar sonini yashirish, yer maydonlaridan yoki qazilma boyliklardan noqonuniy foydalanish — bo‘yicha o‘tkazilishi belgilangan. Qarorning 13-bandi “g” kichik bandida sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma qaror qabul qilish uchun asos bo‘lishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF–71-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ–78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7408455>

to‘g‘risida” Farmonining¹ 1-ilovasi 9-bandida soliq organlari tomonidan korxonalar yoki tadbirkorlik subyektlarida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish, huquqbuzarlik birinchi marta sodir etilganda tadbirkorlik subyektlarini ogohlantirish va agar u uch kun ichida bartaraf etilmasa yoki takroran aniqlansa, keyinchalik soliq tekshiruvini o‘tkazish tartibini joriy etish nazarda tutilgan.

Mazkur hujjatlardan kelib chiqib, Soliq kodeksiga yangi 159¹-modda kiritilmoqda. Ushbu modda O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ–371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni² (15-modda) hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-fevraldagi 60-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori³(1-ilova) bilan tasdiqlangan “Rasmiy ogohlantirish” shakli bilan uzviy bog‘liq.

Yangi norma quyidagi tizimni joriy etadi:

- soliq to‘lovchi avvalo ogohlantiriladi;
- unga huquqbuzarlikni bartaraf etish yoki takrorlamaslik uchun uch kunlik muddat beriladi;
- ushbu muddatdan so‘ng, agar huquqbuzarlik bartaraf etilmagan bo‘lsa, tekshiruv dalolatnomasi asosida qaror qabul qilinadi.

Amaldagi qonunchilikda bunday tartib mavjud emasligi sababli, Soliq kodeksi mazkur 159¹-modda bilan to‘ldirilmoqda.

Taklif qilinayotgan tahrir:

Soliq kodeksining 160-moddasi. Soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorning kuchga kirishi

(*birinchi qism*) Soliq auditi va (yoki) sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha ushbu Kodeksning 159-moddasida nazarda tutilgan tartibda qabul qilingan qaror, agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘ziga nisbatan ushbu qaror qabul qilingan shaxsga (yoki uning vakiliga) berilgan kundan e‘tiboran bir oy o‘tgach kuchga kiradi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta‘sir va asoslantirish: Mazkur modda soliqqa oid huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning kuchga kirish tartibini aniq belgilab beradi. Chunki 159¹-moddada ayrim hollarda qarorlarning kuchga kirishi bo‘yicha alohida tartib nazarda tutilgan. Shu bois, Soliq kodeksining 160-moddasiga ushbu mazmundagi to‘ldirish kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan tahrir:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF–71-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-7486412>

² O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ–371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-2387357>

³ O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-fevraldagi 60-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3110039>

Soliq kodeksining 180-moddasi. O‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi nazorat qilinadigan bitimlar

(yettinchi qism) Nazorat qilinadigan bitimlardagi daromadlarni soliq solish maqsadida aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bunday bitimlarni yoki jami shunday bitimlarni (bundan buyon ushbu bo‘limda “tahlil etiladigan bitim” deb yuritiladi) taraflari mustaqil shaxslar bo‘lgan bitta yoki bir nechta bitim (bundan buyon “taqqoslanadigan bitimlar” deb yuritiladi) bilan taqqoslaydi. Bunday taqqoslash ushbu bo‘limda nazarda tutilgan transfert narxni belgilash chog‘ida daromadlarni aniqlash uslublarini tanlash va ularni qo‘llash maqsadida amalga oshiriladi.

(sakkizinchi qism) Bitimlar bo‘yicha daromadlar summasini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi bitimlar bo‘yicha olingan daromadlarning bozordagi darajasiga muvofiqligini ushbu Kodeksning 22 va 23-boblarida belgilangan qoidalarni inobatga olgan holda tekshirish huquqiga ega.

(to‘qqizinchi qism) O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining arizasiga ko‘ra, sud nazorat qilinadigan bitim belgilariga javob bermaydigan sharoitlarni sun‘iy yaratish maqsadida tuzilgan bir turdagi bitimlar guruhiga kiruvchi bitimni nazorat qilinadigan bitim deb e‘tirof etishi mumkin.

(o‘ninchi qism) Barcha tomonlari O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblangan o‘zaro bog‘liq shaxslar o‘rtasida foiz to‘lash majburiyatisiz (foizsiz) qarzlarni berish bo‘yicha bitimlar nazorat qilinadigan bitimlar deb e‘tirof etilmaydi.

Taklif qilinayotgan shartlardan kutilgan ta‘sir va asoslantirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni¹ga muvofiq, Soliq qo‘mitasi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi sifatida qayta tashkil etilgan. Shu sababli ushbu moddaga boshqa tahririy o‘zgartirishlar bilan bir qatorda “Davlat soliq qo‘mitasi” so‘zlari “Soliq qo‘mitasi” so‘zlariga almashtirilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi PQ–226-son “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorining² 1-ilovasi 8-bandiga binoan, o‘zaro bog‘liq kompaniyalar o‘rtasida foizsiz qarz rasmiylashtirilganda daromad hisoblanishi va soliqqa tortish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish nazarda tutilgan.

Soliq kodeksining 299-moddasiga muvofiq, foizsiz qarz berilganda bitimdan olingan daromad qarz oluvchida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida hisoblanadi. Agar mazkur bitim o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasida tuzilgan bo‘lsa va nazorat qilinadigan bitim toifasiga kirsa, foizsiz qarzlarni bo‘yicha daromad qarz

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF

–14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6369997>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi PQ–226-son “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7637571>

beruvchida ham hisobga olinadi. Bu esa transfert narxlash qoidalari amal qilgan holatda, bitta bitim doirasida ham qarz oluvchi, ham qarz beruvchida daromad yuzaga kelishiga olib keladi.

Mazkur taklif orqali Soliq kodeksining 299-moddasiga muvofiq, foyda solig'ini hisoblashda foizli daromad faqat qarz oluvchida hisobga olinadi va soliqqa tortiladi. Shu bilan nazorat qilinadigan bitimlar doirasida foizsiz qarzar soliqqa tortilmaydi hamda ikki marta soliq hisoblanib qolish ehtimoli bartaraf etiladi.

Natijada o'zaro bog'liq kompaniyalar o'rtasida foizsiz qarz rasmiylashtirishda daromadni hisoblash tartibi aniq belgilanadi, bu esa soliqqa tortishning izchilligini, shaffofligini va takroriy soliqqa tortishning oldini olishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'p-komponentli mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini berdi. Xususan, umuman iqtisodiyotda soliq yukining darajasini real baholash uchun soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot va obyektlarni, shuningdek alohida soliq to'lovchilar tarmoqlari hamda guruhlarini hisobga olgan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat byudjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatli ta'minlash, soliq risklarini kamaytirish hamda resurs yondashuvi va maqsadli yondashuvdan foydalanish orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati va belgilangan maqsadlarga erishish darajasini oshirish zarur.

Yuqorida bayon etilgan takliflar O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotini joriy etish orqali soliq boshqaruvi tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жўраев А., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Иқтисод-мoliya”, 2005. 48-бет

2. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100.

3. Камалнев Тимур Шамилович. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.

4. И.А.Майбуров Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова.-М.: юнити-дана,2007.-655с.).

5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009. с.12.

6. Н.М.Дементева. налоговая политика государства.
https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689

”

7. Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, 2001.– 39 с.

8. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.

9. Даркина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37) • 2019.

10. Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**